

назорати билан мувофиқлаштирилиши керак; самарали мувофиқлаштириш активлар бўйича банк даромади ва мажбуриятлар бўйича харажатлар ўртасидаги фарқни (спрэдни) максималлаштиришга ёрдам беради.

3. Харажатлар ва даромад балансинг икки томонига - активга ҳам пассивга ҳам киритилади. Банк сиёсати активлар бўйича ҳам пассивлар бўйича ҳам даромадни максималлаштириш учун ишлаб чиқилиши керак.

Активлар ва пассивларни бошқаришнинг амалий фойдаланишга мўлжалланган ишлаб чиқилган стратегияларидан бири *фоиз маржаси* (interest margin) - активлар бўйича олинган ва мажбуриятлар бўйича тўланадиган фоизлар ўртасидаги фарқни бошқариш стратегияси эди. Фоиз маржасини бошқаришнинг энг оддий стратегияси *спрэд* (spread) – активлар бўйича фоизли даромадлар ва мажбуриятлар бўйича фоизли харажатлар ўртасидаги фарқни фиксирлаш стратегиясидир. Бу стратегияда банк активлар ва пассивларни уларнинг турлари ва муддатлари мувофиқлигига келтириб, спрэдни фиксирлашга ҳаракат қилади. Шундай экан, фиксирланган фоиз ставкали барча активлар фиксирланган фоиз ставкали пассивлар билан, сузувчи фоиз ставкали барча активлар сузувчи фоиз ставкали барча пассивлар билан молиялаштирилади. Бу стратегия етарлича ишончли бўлса ҳам, ссудаларнинг қайтмаслик рискинни бартараф қила олмайди.

Шундай қилиб, банкнинг бутун даромади қарзлар ва инвестициялар ҳисобига шаклланади деган анъанавий нуқтаи-назар банк молиявий хизматлар пакети – кредитлар, жамғармалар, консалтинг ва бошқаларни сотади ва улар ҳар бирининг нархи уларни тақдим қилиш бўйича банк харажатларини қоплаши керак эканлигини тушинишга ўрнини бўшатиб беради. Балансинг пассив қисмини бошқариш натижасида олинган даромад банкка активларни бошқаришдан олинган тушумлар каби унинг мақсадли фойдалилик мўлжалларига эришишга ёрдам бериши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Аверьянова Ю.Г. Теоретические аспекты финансовой безопасности коммерческого банка//Экономические науки. – Москва, 2011. – №4. – С. 220-225.

Вороков А.Л. Методы и инструменты обеспечения финансовой безопасности коммерческих банков//Научный журнал КубГАУ. – Кубань, 2013. - №90. – С. 1-15.

Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - 1. – С. 168-172.

MINTAQADA IJTIMOY SOHA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

*N.Shermatova, talaba
Qar MII 1-kurs magistratura*

Bugungi kunda davlatning ijtimoiy siyosati aynan aholining sifatli turmush kechirishiga qaratilgan. Bunda “ijtimoiy soha”, “ijtimoiy himoya” kabi tushunchalarning ahamiyati katta. Bu soʻz birikmalari iqtisodiy, siyosiy va davlatshunoslikka oid atamalar hisoblanadi. “Ijtimoiy soha” koʻpchilikning

manfaatlariga tegishli sohani anglatadi. “Ko‘pchilikni himoya qilish” degan tushunchani ham bildiradi, tor ma’noda, aholining muhtoj va nochor toifalarini moddiy va ma’naviy himoya qilishni nazarda tutadi. “Ijtimoiy” so‘zi arabcha “jam” dan yasalgan bo‘lib, ko‘pchilik, to‘planish degan ma’nolarda ishlatiladi. “Jamiyatga, ya’ni ko‘pchilikka tegishli” degan ma’noni anglatadi.

Ijtimoiy sohaga e’tiborning ko‘lamini, so‘nggi yillarda bu borada qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlarining muhimlarini eslash orqali bilish mumkin:

- O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun belgilab berilgan yo‘nalishlar;

- yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar;

- yurtimiz fuqarolari uchun arzon uy-joylar barpo etilishi;

- mehnat bilan bandligini ta’minlash uchun qilinayotgan ishlar;

- ikki sotixli namunali uy-joylar, shuningdek, ikki-uch xonali ko‘p qavatli uylarning qurilishi;

- ta’limni rivojlantirish uchun milliy modellarning joriy etilishi;

- sport va turizmga e’tiborning kuchayishi;

- imtiyozli kreditlarning joriy etilishi va h.k.

Ijtimoiy sohaning o‘ziga xos qonuniyatlari mavjud, ular quyidagilarda aks etgan:

1. Ijtimoiy sohada qiymat tushunchasi bo‘lmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy ne’matlar barpo etilmaydi, aksincha xizmat ko‘rsatiladi.

2. Xizmat ko‘rsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi, ya’ni bu soha xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar, bu esa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab etadi

3. Ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohasini joylashtirishdagi kabi ahamiyatga ega emas. Xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi ko‘rinishdan o‘xshashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati esa bir-biriga o‘xshamaydigan, chunki moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari o‘z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin o‘tkaza borib amortizatsiya ajratmasi sifatida o‘z qiymatini tiklasa, ijtimoiy sohada iste’mol natijasida mehnat vositalari o‘z qiymatini yo‘qotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi

4. Ijtimoiy sohada xizmat ko‘rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish asosan mehnat resurslari sonini ko‘paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiylashgan usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

5. Ijtimoiy sohada xizmat iste’mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining xizmatida bepul bo‘lganlari ham bor. Respublikamizda ijtimoiy sohada ma’lum xizmat turlari pullik ko‘rinishda amalga oshirilmoqda, lekin bunday xizmat ko‘rsatishda ham ma’lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifadagi odamlarga ma’lum yengilliklar berilmoqda.

6. Ijtimoiy sohada pirovard natija jamiyat yoki shaxsning alohida ehtiyojini qondirish bilan o'lanadi. Ijtimoiy soha mehnat faoliyati ana shu yo'nalishga qaratilgan. Lekin, mehnat jarayonining yo'nalishi va maqsadini aniqlash ijtimoiy soha xodimlarining mehnat natijalariga to'liq bog'liq emas. Masalan, inson salomatligi faqat tibbiyot xodimlari mehnat faoliyatiga emas, balki genetik omillar, mehnat sharoitlari va yashash manbalariga ham bog'liq. O'quvchining bilim darajasi faqat pedagog mehnatiga emas, balki boshqa shartlarga, ya'ni o'quvchining salohiyatiga ham bog'liq. Shunday qilib xizmat ko'rsatish xodimlari mehnatining pirovard natijasi to'liq shakllanmay qolish ehtimoli bo'lishi natijaning yaxshi bo'lishiga ular o'z hissalarini qo'shadilar.

7. Ijtimoiy sohaning faoliyat yuritishi ikki xil usulda, ya'ni budjet hamda xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladi.

8. Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlariga ish haqi to'lashni tashkil qilish o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xodimlarning ish haqi manbalari bu sohadan tashqari shakllanadi: moddiy ishlab chiqarish xodimlari yaratgan milliy daromad hisobiga ijtimoiy soha xodimlari ish haqlari milliy daromadning turli qismlarida tashkil topadi, demakdir.

Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari mehnatiga son jihatidan baho berish qiyindir, shuning uchun ham bu soha xodimlariga ish haqi belgilashda mehnat faoliyati samarasiga, vazifa turiga, korxonaga, ma'lumot darajasiga va mehnat stajining davomiyligiga e'tibor beriladi. Shuningdek bu sohalarda xodimlariga ish haqi to'lashda yagona haq to'lash jadvalidan foydalaniladi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilandi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev aholi farovonligini oshirish va uni yangi sifat darajasiga ko'tarishni asosiy vazifa qilib qo'ydi hamda buni Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida alohida yo'nalish sifatida belgilab qo'ydi. Bu vazifani amalga oshirish o'z-o'zidan zamonaviy, yuksak rivojlangan xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil qilishni taqozo etadi. Istiqbolda, 2030 yilgacha bo'lgan davrda ijtimoiy siyosatning samarasini oshirib borish orqali bu sohalarda yuqori natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini yetti yo'nalishdan iborat qilib belgilandi:

1. Erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etiladi, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan, keng ko'lamli islohotlar yangi pog'onaga ko'tariladi.

2. Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zaruriy sharti bo'ladi.

3. Milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritiladi, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tibor markazida bo'ladi.

5. Ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

6. Iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi kabi umumbashariy muammolarga yechim topish dolzarb bo'lib qoladi.

7. Mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlar qudratini yanada oshirish ustuvor maqsad bo'lib qoladi¹³⁰.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy soha ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimi rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi. Moddiy ishlab chiqaruvchilar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarda ijtimoiy sohaning o'z o'rnini bor. Ular mehnat faoliyatlari bilan ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotlarini realizatsiya qilishlarida qatnashadilar.

So'nggi olti yil davomida O'zbekistonda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha xalqimiz uchun real voqelikka aylanmoqda. Mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Bugun Yangi O'zbekiston o'zining uzoqni ko'zlagan ijtimoiy siyosati bilan jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib ulgurdi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tengligi bo'yicha erishayotgan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda.

¹³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" nomli Farmoni